


Bankni strategik rivojlantirish departamenti

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

09 noyabr, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK, IPOTEKA BANK va ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi

(20 oktabr 2025 yildan 09 noyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SANOAT QURILISH BANK

SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,901% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 6,954% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,131% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,948% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,894% darajaga pasaydi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 10,190% gacha o'zgarib turdi.

NBU O'ZBEKISTON MILLIY BANKI

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,726% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,698% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,982% gacha o'zgarib turdi.

ipotekabank otp group

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,969% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,987% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-7,04% gacha o'zgarib turdi.

Agrobank

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 7,173% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 7,154% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,387% gacha o'zgarib turdi.


AloqaBank

O'tgan hafta ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi 8,375% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 8,362% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,680-8,537% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,97% atrofida barqaror bo‘lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,95% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko‘rsatkich pasayib— 3,92 darajasiga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo‘yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o‘zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko‘plab ipoteka kreditlari bog‘langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o‘tgan haftaning boshiga kelib 2,794% (3 oylik) va 3,016% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o‘rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo‘lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko‘rsatkichlar 3,103% (6 oylik) va 2,812% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O‘zbekiston valyuta bozori

O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O‘tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 905,2 million dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 128,0 million dollarga ko’proq.
- ✓ O‘tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 941 so‘mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko’tarilib 11 987 so‘mga yetdi.
- ✓ Har yili so‘m o‘rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya 0,29% ni tashkil etdi.

Dollarning so‘mga nisbatan almashinish kursi






09.11.2026 yil holatiga ko‘ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Kapital bankda* qayd etilgan – *12 025* so‘m. Boshqa banklarda esa kurs 12 030 – 12 045 so‘m atrofida o‘zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo‘yicha eng foydali kurs *Asaka bankda* qayd etilgan – 11 960 so‘m. Boshqa ko‘plab banklarda esa kurs 11 950 – 11 930 so‘m atrofida bo‘lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



YUAN-RUB dinamikasi



EUR-USD dinamikasi





Rossiya rubli AQSH dollariga nisbatan biroz qadrsizlandi

2026-yil 2–6-noyabr kunlari AQSH dollari kursi 80,9 rubldan 81,9 rublgacha ko‘tarilib, 1,24 foizga oshdi. Hafta davomida valyuta bozorida mo‘tadil tebranishlar kuzatilib, dollarning mustahkamlanish tendensiyasi ustunlik qildi. Jahon bozorida neft narxlarining pasayishi va xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning o‘zgarishi rubl kursiga bosim o‘tkazgan bo‘lishi mumkin. 5-noyabr kuni rubl qisqa muddatga mustahkamlanganidan so‘ng, dollar kursi yana ko‘tarilib, 81,9 rublga yetdi. Shunday qilib, ayrim kunlarda kuzatilgan tiklanishga qaramay, hafta yakunida Rossiya rubli biroz qadrsizlandi.



Xitoy yuani rublga nisbatan biroz mustahkamlandi

2026-yil 2–6-noyabr kunlari Xitoy yuani kursi 11,8 rubldan 11,9 rublgacha ko‘tarilib, 0,85 foizga oshdi. Hafta boshida kurs 11,8 rubl darajasida barqaror saqlandi. 4-noyabrdan boshlab Rossiya rublining biroz zaiflashishi fonida yuan kursi 11,9 rublgacha ko‘tarildi. Keyingi kunlarda yuan sezilarli tebranishlarsiz erishilgan darajada saqlanib qoldi. Shunday qilib, hafta yakunida valyuta kursining nisbatan barqaror dinamikasi sharoitida Xitoy yuani biroz mustahkamlandi.



Yevro AQSH dollariga nisbatan pasayish bilan yakunladi


2026-yil 2–6-noyabr kunlari yevro kursi 1,1185 dollardan 1,1143 dollargacha pasayib, 0,38 foizga kamaydi. Haftaning birinchi yarmida AQSHda bo‘lib o‘tgan oraliq saylovlardan so‘ng dollarning zaiflashishi fonida yevro mustahkamlandi. 4-noyabr kuni uning kursi haftalik eng yuqori ko‘rsatkichga, ya’ni 1,1227 dollarga yetdi. Biroq keyingi kunlarda AQSH dollarining tiklanishi natijasida yevro o‘z pozitsiyalarini yo‘qota boshladi. Asosiy pasayish 6-noyabr kuni AQSH mehnat bozoriga oid ijobiy ma’lumotlar Federal zaxira tizimi tomonidan foiz stavkasini oshirish bo‘yicha kutilmalarni kuchaytirishi fonida kuzatildi. Natijada yevro haftani ko‘rib chiqilayotgan davrning eng past darajasida yakunladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Jahon bozorida oltin narxlari hafta yakunida oshdi



2026-yil 2–6-noyabr kunlari jahon bozorida oltin narxi bir troya unsiyasi uchun 3 947,4 AQSH dollaridan 4 065,6 AQSH dollarigacha ko‘tarildi. Hafta boshida narxlar pasayib, 3-noyabr kuni 3 928,3 dollar bilan davrning eng past darajasini qayd etdi. Biroq 4-noyabrga kelib bozorda narxlarning sezilarli tiklanishi kuzatilib, oltin qiymati 4 059,8 dollargacha ko‘tarildi. O‘sish tendensiyasi 5-noyabr kuni ham davom etib, oltin narxi bir unsiya uchun 4 087,3 dollar bilan haftalik eng yuqori ko‘rsatkichga yetdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrning so‘nggi kunida narxlar biroz pasayib, 4 065,6 dollarni tashkil etdi.

Brent markali neft narxlari hafta yakunida pasaydi



2026-yil 2–6-noyabr kunlari jahon bozorida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 104,77 AQSH dollaridan 98,32 AQSH dollarigacha pasaydi. Hafta boshida narxlarning pasayish tendensiyasi kuzatilib, 4-noyabr kuni 94,62 dollar bilan davrning eng past darajasiga yetdi. Pasayishning asosiy sababi AQSHdagi oraliq saylovlardan so‘ng AQSH va Eron o‘rtasidagi ziddiyatning hal etilishi mumkinligi haqidagi kutilmalar bo‘ldi. Biroq 5-noyabr kuni neft tankerlariga uyushtirilgan yangi hujumlar va Ho‘rmuz bo‘g‘ozi orqali neft yetkazib berishda uzilishlar yuzaga kelishi xavotirlari fonida narxlar 98,29 dollargacha tiklandi.

Yevropada TTF gaz narxlari hafta yakunida pasaydi



2026-yil 2–6-noyabr kunlari Yevropa TTF gaz kotirovkalari 96,3 dan 86,8 gacha pasaydi. Hafta boshida narxlar ketma-ket pasayib, Yaqin Sharqdagi mojaroni diplomatik yo‘l bilan hal etish bo‘yicha kutilmalar fonida 4-noyabr kuni 87,9 darajasiga yetdi. Biroq 5-noyabr kuni suyultirilgan tabiiy gaz (STG) yetkazib berilishida uzilishlar yuzaga kelishi xavfi hamda Yevropadagi gaz omborlarida zaxiralarning kamligi bilan bog‘liq xavotirlar sababli narxlar vaqtincha 90,4 gacha ko‘tarildi. Hafta oxiriga kelib kotirovkalar yana 86,8 gacha pasayib, ko‘rib chiqilayotgan davrning eng past darajasini qayd etdi.